

BEGONA O'TLARNING BIOLOGIK GURUHLARI

Ortiqova Lola Soatovna

Dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ortiqova Moxira Izbosarovna

O'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Hasanjonova Komila Shodiyor qizi

Talaba, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotasiya:

Begona o'tlar (ekinlar orasida uchraydigan yovvoyi o'simliklar) qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini va mehnat unumdorligining pasayishida, maxsulot sifatining yomonlashishida salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Begona o't, ekin, yovvoyi o'simlik, qishloq xo'jaligi, hosildorlik.

O'zbekistonda 450 dan ortiq tur, Ukrainada 738 tasi, Rossiyaning qora tuproqli mintaqasida 499 tasi, Tojikistonda 550 tasi, Turkmanistonda 493 ta, Rossiya xududida uchraydigan 21200 turdagi o'simliklarning 1530 ta begona o'tlar uchrashi aniqlangan. Begona o'tlar tuproqdan suvni madaniy o'simlikka nisbatan 1,5 barobar ortiq so'radi. Zarpechak va shumg'iya ekinlarning shirasini so'rib, ularni quritadi. Begona o'tlarning zaxarlilari (kampirchopon, tuyaqorin, mingdevona, bangidevona) ham bor. Ularning urug'lari suv, shamol, inson va hayvonlar vositasida tez tarqaladi. Begona o'tlar ko'p urug' hosil qiladi. Masalan: bir tup kurmak 6000, shumg'iya 100 000, zarpechak 140 000 urug' hosil qiladi. Karantin ob'ektlariga mamlakat hududida uchramaydigan yoki juda kam tarqalgan turlari mamlakat ichkrisiga transport vositalari, qishloq xo'jalik xom ashyolari, odamlar orqali kirib kelishi mumkin bo'lgan, maxsulotlarni zararlanishiga, o'simliklarni kasallanishiga sabab bo'ladigan zararli hasharot, xavfli o'simlik kasalliklari va begona o'tlar kiradi. Bunday zararli organizmlarni ekinzorlarda tarqalishini o'z vaqtida aniqlash, ularni yangi hududlarga tarqalishini chegaralash va zararlangan joylarini himoyalab, yo'q qilib tashlash, mamlakatning boshqa hududlariga bunday organizmlar uchramaydigan hududlariga tarqalishini oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Begona o'tlarning bir necha ming turi ma'lum. O'zbekistonda sug'oriladigan dehqonchilik hududida 269 ga yaqin turi uchraydi, jumladan, bir yillik Begona o'tlardan qorakurmak, itqo'noq, sho'ra, olabuta, ituzum, semizo't, eshaksho'ra hamda ko'p yilliklardan g'umay, ajriq, qo'ypechak, salomalaykum va boshqa ekinlarga zarar yetkazadi. Hayot tarzi va yer osti vegetativ organlarining tuzilishiga ko'ra bir, ikki va ko'p yillik begona

o'tlarga bo'linadi. Bir yillik begona o'tlar hayotida bir martagina meva, urug' berib, ularning rivojlanishi bir yoki ikki vegetatsion mavsum davom etadi, xolos. Ularning ildizi yerning yuza qatlamlaridagina rivojlanadi. Ko'pchiligi urug' yordamida ko'payadi (faqat zarpechak bundan mustasno). Bu guruhga 3 tipdagi begona o'tlar kiradi.

Efemerlar — umri yozgi qurg'oqchilik boshlanishi bilan tugaydigan, tez va qisqa rivojlanish sikliga ega bo'lgan bir yillik begona o'tlar. Bularning kuzgi va bahorgi formalari (yovvoyi bug'doyiq, yaltirbosh va boshqalar) mavjud. Efemerlar, asosan lalmikor ekinzorlarda tarqalgan. Uzoq o'sish sikliga ega, biryillik begona o'tlar efemerlardan farq qilib, rivojlanish sikli uzoqroq davom etadi va odatda, kuzda tugaydi. Ba'zi turlari (bahorgi formalari) rivojlanishi erta bahorda, kunlar isishi bilan boshlanadi (zarpechak, tuyaqorin va boshqalar)-biroq ko'pchilik turlari kuzgi formaga mansub. Ikki yillik begona o'tlar hayotining birinchi yilida to'pbarg hosil qilib, shu holda qishlaydi. Ikkinchi yili esa poyasi rivojlanadi, meva tugadi va nobud bo'ladi (mas, ko'ztikan, shaytonkelmas, moxobel va boshqalar). Ularni yo'qotish uchun ko'p kuch va mablag' sarflanadi.

Ko'p yillik begona o'tlar hayotida bir necha marta gullab, urug'laydi. Ular yer osti organlari bilan ham ko'paya oladi. Yer osti organlarining tuzilishi va ko'rinishiga qarab ko'p yillik begona o'tlarni bir necha tiplarga bo'lish mumkin. O'q ildizli begona o'tlar asosiy ildiz va undan chiqadigan ko'plab mayda ildizchalar hamda ildiz tukchalariga ega (zubtutum, sachratqi va boshqalar). Bu o'simliklar vegetativ yo'l bilan ko'paymaydi. Popukildizli begona o'tlarning mayda ildizlari kuchli rivojlangan bo'ladi (zubtutum). Ildizbachkililarning ildizi juda rivojlangan bo'lib, yerga chuqur o'sib kiradi, ularning ildiz kurtaklaridan rivojlanadigan bachkilari bor. Bachkilar ba'zi o'simliklarning asosiy ildizida, ayrimlarining butun ildiz tizimi bo'ylab (bo'ztikan) yoki maxsus ko'payish ildizlarida (yantoq, oqbosh, jinchak va boshqalar) hosil bo'ladi. Bunday begona o'tlar o'ta yashovchanligi bilan boshqalaridan farqqiladi.

Ildizpoyali begona o'tlarning gorizontaal sudralib o'suvchi, yerga uncha chuqur kirmagan yer osti poya — ildizpoyasi bor: bular ba'zilarida kalta (g'umay), ayrimlarida esa uzun (ajriq, bug'doyiq). Namlangan tuproqqa tushgan ildizpoya bo'laklari tez va oson o'sish xususiyatiga ega.

Ildizmevali begona o'tlariing yer osti piyozi yoki tuganaklari bo'ladi (yovvoyi piyoz, lola va boshqalar). Asosan, urug' bilan, shuningdek tuganak yoki piyoz yordamida ko'payadi. Chimsimon ildizli begona o'tlar popuk ildizli bo'lib, bularning yer ustki organlari yil sayin o'sib, chim hosil qiladi. Bunday begona o'tlar vegetativ ko'payish xususiyatiga ega emas (savag'ich va boshqalar).

Parazit begona o'tlarning bu guruhiga pechakguldoshlar (Cussutaseae) oilasiga kiradigan pechaklarning barcha turi kiradi. Ular karantin begona o'tlar hisoblanadi. Bu begona o'tlar ingichka poyali va yo'g'on poyalilarga bo'linadi. Ingichka poyali parazitlarga sebarga

zarpechagi, kipriksimon zarpechak, zig'ir zarpechagi kiradi. O'zbekistonda yo'g'on poyali parazitlardan Leman zarpechagi yoki dovpechak ko'proq uchraydi.

Yovvoyi sill; - g'allasimonlar oilasiga mansub bo'lib, bir yillik begona o't hisoblanadi. Yovvoyi sulini ko'pchilik qora ko'za deb ham ataydi. Boshpoyasining balandligi 20-80 sm bo'lib, tik o'sadi. Maysalari och yashil bo'lib, tashqi ko'rinishidan madaruy suliga o'xshaydi. Asosan, bahorgi don ekinlari va ko'pincha suli orasida o'sib, urug'idan ko'payadi. Har bir ro'vakda o'rtacha 40-60 tagacha boshoqcha bo'ladi. Urug'i yetilishi bilanoq, sochilib ketib, madaniy sulidan farq qiladi, har bir tupida 600 donagacha urug' bo'ladi(1-rasm).



1-rasm. Yovvoyi sill

Oq sho'ra, olabo'ta - sho'radoshlar oilasiga kiruvchi eng ko'p tarqalgan begona o'tlar hisoblanadi. O'zbekistonda oq sho'ra, sassiq sho'ra, xushbo'y sho'ra keng tarqalgan. Xushbo'y sho'ra - sarg'ish - yashil rangli, xushbo'y hid chiqaradigan, bezli tukchalar bilan qoplangan. Hamma ekinlar orasida uchraydi (2-rasm).



2-rasm. Oq sho'ra

Sassiq sho'ra - o'ziga xos o'tkir hid chiqaradi. Sug'oriladigan ekinlar bilan bir qatorda hovlilarda, ariq va yo'l yoqalarida, partov yerlarda ko'p uchraydi. Barglari unsimon dog'lar bilan qoplangan bo'lib, sug'oriladigan ekinlar, ayniqsa, g'o'za orasida keng tarqalgan. Poyasi to'g'ri, bo'yi 40-100 sm.ga etadigan sershox, yaproqlari tuksimon, cheti qirrali bo'lib o'sadi. Sho'ra juda serurug' bo'lihi, bir tupda 1,5 mln. tagacha urug' hosil bo'ladi

Yovvoyi gultojixo'roz - gultojixo'rozlar oilasiga mansub bo'lib, bir yillik kech bahorgi begona o'tlardan hisoblanadi. Bir tup yovvoyi gultojixo'roz 500 mingtagacha urug' qiladi

Shamak qorakurmak - g'alladoshlar oilasidan bo'lib, bir yillik kech bahorgi begona o't hisoblanadi. Poyasi tuksiz bo'lib, bo'yi 80-100 smga yetadi. Yaproqlari tasmasimon cheti g'adir - budur, pastdan shoxlangan bo'ladi.

Itqo'noq - boshqodoshlar oilasiga kiruvchi, bo'yi 70 sm gacha yetadigan kech bahorgi bir yillik o't, uning 2 turi bor. Ko'k itqo'noq va oq itqo'noq. Bu guruhga maysalari qishlash qobiliyatiga ega bo'lgan o'simliklar misol bo'la oladi. Kuzda ungan urug'lar ildiz yonidan to'jbarg hosil qilib hamma rivojlanish pallasida, hatto gullash fazasida ham qishlashi mumkin. Bungajag'-jag' misol bo'la oladi. Jag'-jag' achambitii - butgullilar oilasiga kiruvchi, bo'yi 10 sm, ba'zan 70 sm keladigan bir yoki bir qancha poyaga ega bo'lgan bir yillik o'tdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Васютин А.С., Каюмов М.К., Мальцев В.Ф. Карантин растений, Изд –во Брянской ГСХА, 2002. 535 с.
2. Справочник по карантинам и др. опасным вредителям, болезням и сорными растениям -М.:Колос, 1970, 326 с.
3. Паспелов С.М., Шестиперова З.И., Долженко И.К. Основы карантина сельскохозяйственных растений. М.: Агропромиздат, 1985, 182 с.
4. Шералиев А., Белолипов И.В. Ботаника ва ўсимликлар физиологияси, Тошкент, "Ўўлпон" номидаги нашриёт, 2006, 290 б
5. Шералиев А. Техник экинлар касалликлари, Тошкент, "ТошДАУ нашриёти", 2006. 180 б.